

DEVIANT XULQLI O'QUVCHILAR TARBIYASIDA MAKTAB MA'NAVYI-
MA'RIFIY TADBIRLARINING NAZARIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Jabborova Muattar Xatamovna

Jizzax shaxar maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 1-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabida musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarining deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilingan. Deviant xulq-atvorning pedagogik, psixologik va ijtimoiy mohiyati ochib berilib, uning kelib chiqish omillari hamda o'quvchilar shaxsiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy imkoniyatlari, ularni tashkil etishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari va tarbiya jarayonidagi samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot natijalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchilarda ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish hamda deviant xulq ko'rinishlarining oldini olishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Maqola umumta'lim maktablari pedagoglari, sinf rahbarlari, psixologlar va tadqiqotchilar uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: deviant xulq, deviant xulqli o'quvchilar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarbiya, ijtimoiylashuv, pedagogik faoliyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, profilaktika, o'quvchi shaxsi, maktab muhiti, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv, tarbiyaviy ishlar, xulq-atvor korreksiyasi.

Аннотация. В данной статье теоретически исследуются роль и значение духовно-просветительских мероприятий школы в воспитании учащихся с девиантным поведением. Раскрываются педагогическая, психологическая и социальная сущность девиантного поведения, факторы его возникновения и влияние на развитие личности школьника. Особое внимание уделяется воспитательному потенциалу духовно-просветительских мероприятий, современным педагогическим подходам к их организации и эффективности в образовательном процессе. В результате исследования определены теоретические основы формирования позитивного социального поведения учащихся, развития их духовно-нравственных качеств и предупреждения проявлений девиантного поведения посредством духовно-просветительской деятельности. Материалы статьи могут быть использованы педагогами, классными руководителями, школьными психологами и исследователями в области педагогики и воспитания.

Ключевые слова: девиантное поведение, учащиеся с девиантным поведением, духовно-просветительские мероприятия, воспитание, социализация, педагогическая деятельность, духовно-нравственное воспитание, профилактика, личность учащегося, школьная среда, педагогические технологии, социальная адаптация, воспитательная работа, коррекция поведения.

Abstract. This article theoretically examines the role and significance of spiritual and educational activities conducted in schools for the upbringing of students with deviant behavior. The pedagogical, psychological, and social essence of deviant behavior is analyzed, along with the factors contributing to its emergence and its impact on students' personality development. Particular attention is paid to the educational potential of spiritual and educational activities, contemporary pedagogical approaches to their organization, and their effectiveness in the



educational process. The study identifies the theoretical foundations for fostering positive social behavior, enhancing students' moral and spiritual qualities, and preventing manifestations of deviant behavior through educational and value-oriented activities. The findings may serve as a scientific and practical resource for teachers, class supervisors, school psychologists, and researchers in the field of education.

Keywords: deviant behavior, students with deviant behavior, spiritual and educational activities, upbringing, socialization, pedagogical activity, moral education, preventive measures, student personality, school environment, pedagogical technologies, social adaptation, educational work, behavior correction.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri yosh avlodni ma'naviy barkamol, vatanparvar, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda ular orasida uchrayotgan turli salbiy xulq-atvor ko'rinishlarining oldini olishdan iborat. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlarini va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim o'quvchilarda umumqabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari, ya'ni deviant xulq-atvor namoyon bo'lmoqda.

Deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlash ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilikning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Bunday o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularda ijobiy fazilatlarni shakllantirish hamda salbiy xatti-harakatlarning oldini olishda maktabda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbirlar o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish, axloqiy me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarining samarali tashkil etilishi o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, ularda mas'uliyat, intizom, muloqot madaniyati va sog'lom turmush tarziga intilish kabi sifatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday tadbirlar deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillarni kamaytirish hamda o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan foydali faoliyatga jalb etish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning nazariy asoslarini tahlil qilish, ushbu jarayonning pedagogik imkoniyatlari hamda tarbiyaviy samaradorligini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.

Deviant xulqli o'quvchilarni musiqa madaniyati orqali tarbiyalash metodikasi aniq maqsad, vazifa, tamoyil, pedagogik shart-sharoit, faoliyat mazmuni, metod va kutiladigan natijalarni o'z ichiga olgan pedagogik model asosida tashkil etilganda samarali bo'ladi. Modelning asosiy maqsadi — ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda musiqa madaniyati imkoniyatlaridan foydalanish orqali deviant xulqli o'quvchilarning ijtimoiy xulqini ijobiylashtirish, emotsional barqarorligini ta'minlash va jamoaviy faoliyatga moslashuvini kuchaytirishdan iborat.

Mazkur modelda o'quvchi tarbiyaviy ta'sir obyekti emas, balki faol ishtirokchi sifatida qaraladi. Ya'ni o'quvchi qo'shiq kuylaydi, kuy tinglaydi, sahna ko'rinishida qatnashadi, musiqiy obrazni tahlil qiladi, tadbirni tashkil etishda mas'uliyat oladi va jamoa bilan birgalikda natijaga erishadi. Bunday yondashuv deviant xulqli o'quvchining ichki motivatsiyasini oshiradi, unga ijobiy ijtimoiy rol beradi va o'z xatti-harakatini nazorat qilishga yordam beradi.

Modelni ishlab chiqishda quyidagi vazifalar belgilanadi: deviant xulqli o'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini diagnostika qilish; ularning musiqiy qiziqishlari va ijodiy imkoniyatlarini aniqlash; ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmunini tarbiyaviy maqsadga mos



rejalashtirish; musiqiy faoliyat orqali emotsional barqarorlikni rivojlantirish; jamoaviy ijodiy ishlar orqali ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish; natijalarni kuzatish, baholash va tahlil qilish.

Model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: maqsadli blok, mazmunli blok, tashkiliy-faoliyatli blok, diagnostik-baholash bloki va natijaviy blok. Maqsadli blokda tarbiyaviy maqsad, vazifalar va kutiladigan natijalar belgilanadi. Mazmunli blokda musiqa madaniyati, milliy musiqiy meros, ma'naviy-ma'rifiy mavzular va ijtimoiy xulqni shakllantiruvchi materiallar tanlanadi. Tashkiliy-faoliyatli blokda tadbir shakllari, metodlar, vositalar va ishtirokchilar hamkorligi ko'rsatiladi. Diagnostik-baholash blokida o'quvchilarning xulqidagi o'zgarishlar kuzatiladi. Natijaviy blokda ijobiy xulq, jamoaviylik, mas'uliyat va emotsional barqarorlik darajasi baholanadi.

Model samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar quyidagilardan iborat: maktabda psixologik xavfsiz va ijodiy muhit yaratish; deviant xulqli o'quvchini kamsitmasdan, unga ishonch bildirish; musiqa repertuarini tarbiyaviy maqsadga muvofiq tanlash; sinf rahbari, musiqa fani o'qituvchisi, maktab psixologi va ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish; o'quvchining kichik yutuqlarini muntazam rag'batlantirish; tadbir jarayonida jamoaviy mas'uliyatni kuchaytirish.

Pedagogik modelni amaliyotga tatbiq etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich — diagnostik-tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda o'quvchilarning xulqi, qiziqishlari, emotsional holati va jamoa bilan munosabati o'rganiladi. Ikkinchi bosqich — shakllantiruvchi bosqich bo'lib, unda o'quvchilar musiqiy-ijodiy faoliyatga jalb etiladi. Uchinchi bosqich — mustahkamlovchi bosqich bo'lib, unda ijobiy xulq namunalari barqarorlashtiriladi, o'quvchining o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari rivojlantiriladi. To'rtinchi bosqich — tahliliy-natijaviy bosqich bo'lib, unda erishilgan natijalar baholanadi va kelgusidagi tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi.

Modelda baholash mezonlari sifatida quyidagilar olinadi: intizomga rioya qilish, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish, agressivlik darajasining pasayishi, ijobiy muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi, mas'uliyatli vazifalarni bajarish, musiqiy-ijodiy faoliyatga qiziqish, o'z xatti-harakatini tahlil qila olish va ijtimoiy foydali faoliyatga intilish. Ushbu mezonlar asosida past, o'rta va yuqori darajalar belgilanadi.

Shunday qilib, deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli musiqa madaniyati va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar imkoniyatlarini yagona tarbiyaviy tizimga birlashtiradi. Model o'quvchini jazolashga emas, balki uni ijobiy faoliyatga olib kirish, emotsional dunyosini sog'lomlashtirish va ijtimoiy xulqini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltiriladi.

Model bloki	Mazmuni	Kutiladigan natija
Maqsadli blok	Maqsad, vazifa, tamoyillarni belgilash	Tarbiyaviy ishning yo'nalishi aniqlanadi
Mazmunli blok	Musiqiy repertuar, tadbir mavzusi, qadriyatlar	Tarbiyaviy mazmun boyitiladi
Tashkiliy-faoliyatli blok	Metod, shakl, vosita, hamkorlik	O'quvchi faol ishtirokchiga aylanadi
Diagnostik-baholash bloki	Kuzatuv, suhbat, anketa, xulq monitoringi	O'zgarishlar aniqlanadi
Natijaviy blok	Ijobiy xulq, mas'uliyat, jamoaviylik	Ijtimoiy moslashuv kuchayadi

Pedagogik modelni amalga oshirish jarayonida tarbiyaviy ishlarning uzluksizligi va tizimlilikini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki deviant xulqli o'quvchilar bilan



olib boriladigan ishlar qisqa muddatli yoki epizodik xarakterga ega bo'lsa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi. Shu sababli pedagogik model asosida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy faoliyat muntazam ravishda amalga oshirilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich murakkablashtirib borilishi lozim.

Mazkur modelning muhim jihatlaridan biri – o'quvchilarda ijobiy motivatsiyani shakllantirishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, deviant xulqli o'quvchilar ko'pincha o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik, jamoada o'z o'rnini topa olmaslik yoki e'tibordan chetda qolish hissini boshdan kechiradilar. Musiqa madaniyati asosidagi faoliyat esa ularga muvaffaqiyat hissini tuyish, o'z qobiliyatini namoyon qilish va jamoa tomonidan e'tirof etilish imkoniyatini beradi. Bu holat o'quvchilarda o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi hamda salbiy xulq-atvorni kamaytirishga xizmat qiladi.

Pedagogik modelni amaliyotga tatbiq etishda differensial yondashuvdan foydalanish ham muhim hisoblanadi. Chunki har bir o'quvchining psixologik holati, qiziqishi, oilaviy muhiti va deviant xulq ko'rinishlari turlicha bo'ladi. Masalan, agressiv xulqli o'quvchilar bilan emotsional relaksatsiyaga yo'naltirilgan musiqiy mashg'ulotlar samarali bo'lsa, tortinchoq va ijtimoiy chekinishga moyil o'quvchilar uchun sahna chiqishlari, jamoaviy qo'shiqlar yoki rolli o'yinlar foydali natija beradi. Shu sababli pedagog har bir o'quvchiga individual yondashishi va unga mos tarbiyaviy metodlarni tanlashi zarur.

Modelni amalga oshirishda musiqa fani o'qituvchisi, sinf rahbari, maktab psixologi va ot-onalar o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda tadbirlarda qatnashishi, ularni qo'llab-quvvatlashi va pedagoglar bilan muntazam muloqotda bo'lishi tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi. Bu hamkorlik o'quvchilarda o'zini qadrlangan shaxs sifatida his qilishiga yordam beradi hamda oilaviy va maktab tarbiyasi uyg'unligini ta'minlaydi.

Shuningdek, pedagogik model doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Multimedia vositalari, audio va videomateriallar, interfaol taqdimotlar hamda elektron musiqiy dasturlar o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan musiqiy treninglar va interfaol mashg'ulotlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik model samaradorligini ta'minlashda rag'batlantirish tizimi ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning kichik yutuqlarini ham e'tirof etish, ularga maqtov va rag'bat berish, diplom va tashakkurnomalar bilan taqdirlash ularning motivatsiyasini oshiradi. Ayniqsa, deviant xulqli o'quvchilar uchun ijobiy baho va qo'llab-quvvatlash muhim psixologik omil hisoblanadi. Chunki ular ko'pincha tanqid va jazoga duch kelganliklari sababli o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotgan bo'ladilar.

Mazkur pedagogik modelning yana bir muhim jihati – o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishidir. Turli musiqiy to'garaklar, ijodiy studiyalar, ansambl va xor jamoalari o'quvchilarning vaqtini foydali faoliyat bilan band qilishga xizmat qiladi. Bu esa ularni salbiy muhit va zararli odatlardan uzoqlashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning muhim pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadbirlar o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitish, ijtimoiy faolligini oshirish, jamoada o'z o'rnini topishiga ko'maklashish hamda salbiy xulq-atvor ko'rinishlarini bartaraf etishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar deviant xulq-atvorning shakllanishida oila muhiti, tengdoshlar ta'siri, internet va ommaviy axborot vositalari, nazoratning sustligi hamda tarbiyaviy ishlarning yetarli darajada tashkil etilmaganligi muhim omillar ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli bunday o'quvchilar bilan



ishlashda kompleks yondashuvni qo'llash, pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish zarur.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni ijodiy, sport va ijtimoiy loyihalarga keng jalb etish tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi. Natijada o'quvchilarda ijobiy hayotiy pozitsiya, mas'uliyat hissi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, qonunlarga itoatkorlik va sog'lom turmush tarziga intilish kabi sifatlar shakllanadi.

Demak, maktab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari deviant xulqli o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishida muhim omil bo'lib, ularni tarbiyalashning nazariy hamda amaliy asoslarini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
5. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
6. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
7. Musurmonova O. *O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2015. – 220 b.
8. Nishonova S., Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I. *Pedagogika tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 312 b.
9. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M. *Pedagogika*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 540 b.
10. G'oziyev E.G'. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 512 b.
11. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M.M. *Yosh va pedagogik psixologiya*. – Toshkent: TDPU, 2018. – 380 b.
12. Merton R.K. *Social Theory and Social Structure*. – New York: Free Press, 1968. – 702 p.
13. Durkheim E. *The Rules of Sociological Method*. – New York: Free Press, 1982. – 256 p.
14. Becker H.S. *Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance*. – New York: The Free Press, 1963. – 224 p.
15. Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
16. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
17. Bronfenbrenner U. *The Ecology of Human Development*. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
18. Akramova F.A. Yoshlar orasida deviant xulq-atvor profilaktikasining ijtimoiy-pedagogik omillari // *Pedagogik mahorat*. – Buxoro, 2022. – №4. – B. 45–50.
19. Yuldashev Q.Q. O'quvchilar tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarining o'rni // *Xalq ta'limi*. – Toshkent, 2023. – №2. – B. 68–74.
20. Ochilov N.O'. Maktab o'quvchilari o'rtasida deviant xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari // *Ta'lim va innovatsiya*. – Toshkent, 2024. – №1. – B. 102–108.

